



**TIL VA ADABIYOT  
TA'LIMI**

“Filologiya va pedagogika”  
ilmiy-metodik jurnali  
Oliy attestatsiya komissiyasi  
Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi  
364/5-qarori bilan  
10.00.00 – Filologiya va  
13.00.00 – Pedagogika fanlari  
bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari  
(PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini  
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy  
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2025-yil  
13 (17)-son**

**e-ISSN 3060-4885**

# FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И  
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И  
ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND  
PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL  
ELECTRONIC JOURNAL OF THE  
MINISTRY OF PRESCHOOL AND  
SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN



Ushbu son

Stilizatsiyalashgan  
folklorizmning  
mohiyati va adabiy-  
estetik vazifasi

4  
bet

Ocherk janrining  
zamonaviy media  
kontekstidagi  
o'rni

16  
bet

Erkin A'zam  
ijodida ismlar  
poetikasining  
o'rganilishi

88  
bet

Видовременная система  
как проявление  
градуальности  
глаголов

111  
bet



## TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va  
ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan 2024-yil  
19-avgustda 360240-raqami  
bilan davlat ro'yxatidan  
o'tkazilgan.

2025-yil  
13 (17)-son

e-ISSN 3060-4885

### MAS'UL MUHARRIR

Nargiza Sotvoldiyeva

### MUHARRIRLAR:

Shahobiddin Rasulov  
Najmiddin Ermatov  
Emma Torosyan  
Shaxina Muxamedjanova  
Muxlisa Do'stmuhamedova

### SAHIFALOVCHI

Gulnoza Valiyeva

### Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri  
Navoiy ko'chasi 30-uy.  
Telefon: (55) 510-28-44,  
(77) 358-57-67  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

### Materiallar

@FilologiyaPedagogikaBot  
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 28.11.2025 da  
nashr etildi.

### MUASSIS

O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta'limi vazirligi  
"Til va adabiyot ta'limi"  
davlat korxonasi

# FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

### TAHRIR HAY'ATI:

#### E'zozxon Karimova

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

#### Farhod Boqiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari

#### Azizbek Turdiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari

#### Farrux Jabborov

"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и литературы" –  
"Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri

#### 10.00.00 – FILOLOGIYA

##### Baxtiyor Mengliyev

Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-  
professori, filologiya fanlari doktori

##### Baxtiyor Doniyorov

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Nurafshon filiali  
professori, filologiya fanlari doktori

##### Anatoliy Lixodzhiyevskiy

O'zbekiston davlat jahon tillari  
universiteti professori, filologiya fanlari doktori

##### Oksana Gibraltarskaya

O'zbekiston Milliy universiteti  
professori, filologiya fanlari doktori

##### Sherzod Atamuradov

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

##### Ranusha Atayeva

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi  
universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori

##### Mohichexra Boltayeva

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

##### Muxtarbay Kurbanov

Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti,  
filologiya fanlari doktori

##### Iroda Nasimova

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy  
kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

##### Dilmurod Teshaboyev

Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim  
uslubiyati kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari  
doktori

##### Gulhida Ikromova

Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim  
uslubiyati kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya  
fanlari bo'yicha falsafa doktori

#### 13.00.00 – PEDAGOGIKA

##### Qozoqboy Yo'ldoshev

Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori,  
pedagogika fanlari doktori

##### Gulnora Mansurova

Toshkent davlat iqtisodiyot  
universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori

##### Xadicha Muxitdinova

O'zbekiston davlat jahon tillari  
universiteti professori,  
pedagogika fanlari doktori

##### G'ofir Hamroyev

Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-  
professori, pedagogika fanlari doktori

##### Sevara Ziyayeva

O'zbekiston davlat jahon tillari  
universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari doktori

##### Indira Narkulova

O'zbekiston Respublikasi Jamoat  
xavfsizligi universiteti katta o'qituvchisi,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

##### Abduvali Daminov

O'zbekiston Milliy universiteti  
ijtimoiy fanlar fakulteti huquqiy fanlar kafedrasida  
katta o'qituvchisi

##### Gulnoza Uzokova

Qarshi davlat universiteti professori,  
pedagogika fanlari nomzodi

##### Lola Akramova

Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'zbek tili va  
xorijiy tillar, pedagogika kafedrasida dotsenti

##### Zulfiya Ortiqova

Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim  
uslubiyati kafedrasida katta o'qituvchisi, pedagogika  
fanlari bo'yicha falsafa  
doktori

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining  
2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha  
doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

# M U N D A R I J A

## 10.00.00 – FILOLOGIYA

<b>Xumora Najimova.</b> Stilizatsiyalashgan folklorizmning mohiyati va adabiy-estetik vazifasi .....	4
<b>Gulhida Ikromova.</b> Dramatik dialog lingvistik tadqiqida asosiy nazariy yondashuvlar.....	6
<b>Dilnoza Temirova.</b> Mustaqil so'zlarning yordamchi so'zlarga o'tish tamoyillari.....	7
<b>Avazbek Shomurodov.</b> O'zbek milliy maqom san'atining o'ziga xos jihatlari va ahamiyati.....	10
<b>Shamsiya Atoyeva.</b> Tazkiralarda davr adabiy muhitiga hissa qo'shgan ijodkorlar talqini.....	11
<b>Lola Alibaeva.</b> Rus adabiyotida sharq haqidagi qarashlarning tarixiy va madaniy evolutsiyasi.....	13
<b>Aslbek Ergashev.</b> Rus va o'zbek adabiyotida qissa janrining shakllanishi va rivojlanishi.....	14
<b>Iroda Nasimova.</b> Ocherk janrining zamonaviy media kontekstidagi o'rne.....	16
<b>Durdona Madraximova.</b> Leksikografik yondashuvlar: ikki tilli lug'atlar tahlili.....	17
<b>Cho'lponoy Mo'minova.</b> Sun'iy intellekt bo'yicha kelib chiqishi yevropacha bo'lgan terminlarning o'zbek tilidagi tarjima va adaptatsiya modellari.....	19
<b>Эльвина Алиева, Алина Габайдулина.</b> Роль словарей в ономастических исследованиях.....	21
<b>Мухлиса Саидова, Ойбек Акбаров.</b> Типология трагического героя в русской литературе переходной эпохи (конец XIX – начало XX века).....	24
<b>Дилафруз Хамдамалиева, Ойбек Акбаров.</b> Эволюция женских образов в русской литературе XIX века: от Татьяны Лариной до Анны Карениной.....	25
<b>Мадина Абдурахмонова, Зилола Собирова.</b> Нейропсихолингвистический анализ нарушений смыслового восприятия текста у детей с дислексией.....	26
<b>Зиёдахон Хусанова, Зилола Собирова.</b> Нейропсихолингвистический анализ билингвизма в российской науке.....	28
<b>Барно Абудаллаева.</b> Функционирование лексического повтора на различных уровнях языковой системы.....	29
<b>Зилола Рузиева.</b> Категория вида в аспекте семантики и прагматики.....	30
<b>Сетора Хамидова, Зилола Собирова.</b> Поэтика языковой игры в сатирической прозе середины XIX века: анализ словесных механизмов в произведениях М.Е.Салтыкова-Щедрина.....	34
<b>Ирина Шатова.</b> Лингвокультурный и социолингвистический анализ наименований государственных должностей в русском и узбекском языках.....	35
<b>Ramziya Ostonsova.</b> Qurilish terminosistemasida morfologik transformatsiya tarjima modeli.....	37
<b>Davronbek Abdullayev.</b> lingvistik talqinda leksik ma'no o'zgaruvi badiiy nutqning daraja vositasi sifatida.....	39
<b>Komila O'ng'arova.</b> Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida manbalari.....	41
<b>Salamat Saparov.</b> Ingliz va qoraqalpoq tillarida adyektiv komparativ iboralarning kognitiv-semantik tahlili.....	43
<b>Zebiniso Ibragimova.</b> Ma'suma Ahmedovanning hikoyalarida xotin-qizlar obrazi.....	44
<b>Zuxriddin Nuriddinov.</b> Andrey Platonov nasrida bosh qahramon obrazida madaniy jarohatning aks etishi.....	46
<b>Gulchehra Mardonova.</b> Ogahiyning oshiqona muxammaslari tahlili.....	48
<b>Nilufar Kuchimova.</b> Birlashgan Millatlar Tashkilotida rasmiy diskurs va diplomatik nutq aktlari: institutsional va huquqiy tahlil.....	49
<b>Ma'suma Akbarova.</b> Tilshunoslikda leksik birliklarning lingvomadaniy tahlili.....	52
<b>Maftuna Chilmurzayeva.</b> O'zbek va ingliz adabiyoti taraqqiyotida tarixiy roman janrining rivojlanish tendensiyalari (Abdulla Qodiriy va Valter Skott asarlari misolida).....	53
<b>Mahliyo Kamolova.</b> Mumtoz an'analarning zamonaviy o'zbek she'riyatidagi o'rne (Nodira Ofoq ijodi misolida).....	55
<b>Ma'suma Mo'minova.</b> "Xazoyin ul-maoniy"ga kirmagan she'rlar.....	57
<b>O'g'ilxon Po'latova.</b> Komissiv nutqiy aktlarning grammatik, semantik, pragmatik xususiyatlar bo'yicha tasniflanishi.....	59
<b>Dilorom Sabirova.</b> Ingliz zabon va o'zbek nasrlarida badiiy polifonizm modifikatsiyalari (Uilyam Folkner va Isajon Sulton ijodi misolida).....	61
<b>Yulduz Turdiyeva.</b> "Sirli muallim" dagi oshkora haqiqatlar.....	63
<b>Olim Usmonov.</b> G'ulom Zafariy dramalarida jadidchilik g'oyalarining yoritilishi.....	65
<b>Feruzbek Narmatov.</b> Xorazm baxshichilik san'atining tarixiy ildizlari va evolutsiyasi.....	67
<b>Mohinur Tojiboyeva.</b> "Donolik" va "nodonlik" konseptlarining o'zbek va ingliz siyosiy diskursidagi lingvistik-relyativ tahlili.....	69
<b>Sobir Tuychiyev.</b> Kompyuter va internet leksikasining zamonaviy rivoji: fransuz va o'zbek tillarida neologizmlarning paydo bo'lish mexanizmi.....	71
<b>Nafisa Karimova.</b> Ijodkorda mahoratning shakllanishi.....	72
<b>Ma'ruf Qodirov.</b> Doston ijrochiligida sahna nutqi va nutq texnikasining nazariy asoslari.....	74
<b>Madonbek Yusupbayev.</b> O'zbek xalq ijodiyoti rivojida baxshichilik san'atining tutgan o'rne.....	75
<b>Nigoraxon Saloxiddinova.</b> Ruhiiy holatning poetik lavhada aks etishi.....	77
<b>Nilufar Akramova.</b> Ingliz va o'zbek tillarida gluttonik pragmatonimlarning lingvokulturologik xususiyatlari.....	78
<b>Sobir Xamzayev.</b> Global muloqot va internetning til lug'at tarkibiga ta'siri.....	80
<b>Gulnoza Orziqulova.</b> Edvard Young ijodining jahon adabiyotshunosligida o'rganilishi.....	82

<b>Sarvinov Alimova.</b> Ot so'z turkumida son grammatik kategoriyasining ifodalanishi.....	84
<b>Zarifa O'rinova.</b> Intertekstual tezauruslarning shakllanishi va taraqqiyoti.....	86
<b>Sobira Tirkasheva.</b> Erkin A'zam ijodida ismlar poetikasining o'rganilishi.....	88
<b>Oybahor Primqulova.</b> Okkazonal birliklar va neologik shakllarning o'xshash va mushtarak jihatlari.....	90
<b>Rasulbek Abduraxmanov.</b> Dostonchilik an'anasining tarixiy ildizlari, badiiy mohiyati va madaniy vazifalari.....	93
<b>Shaxlo Botirova.</b> XXI asr o'zbek nasridagi fragmentar kompozitsiyada noan'anaviy qissa strukturasi yangi ko'rinishlari.....	95
<b>Nasiba Jumaeva.</b> Artistic Representation of Globalization Problems in Contemporary Turkish Novels.....	96
<b>Ozod Qurbanov.</b> Ommaviy axborot vositalarida ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar timsolini yaratish: muammo va kamchiliklar.....	98
<b>Zebo Yodgorova.</b> Defining Modality and Mode in Media Theory.....	101
<b>Oyguil Axmedova.</b> Sherobod dostonchilik maktabi va uning ilmiy o'rganilishi.....	103

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA

<b>Дамира Яфасова.</b> Медиатекст как инструмент совершенствования речевых навыков студентов.....	106
<b>Дилафруз Махкамova.</b> Корпоративная культура вуза как фактор профессионального воспитания студентов.....	107
<b>Замира Вафаева.</b> Современные методы и подходы к обучению русского языка как иностранного в эпоху цифровизации.....	108
<b>Дилфуза Умарова.</b> Специфика изучения русского языка бакалаврами-нефилологами.....	110
<b>Нилуфар Дустьмаматова.</b> Видовременная система как проявление градуальности глаголов.....	111
<b>Sohiba Zokirova, Dilnavoz Tojiyeva.</b> Boshlang'ich sinfda ertaklar asosida lingvistik kompetentlikni axloqiy ta'lim bilan integratsiyalash.....	113
<b>Iroda Sodiqova.</b> "Lingvomadaniy kompetensiya" tushunchasi va uning tarkibiy qismlari.....	115
<b>Doniyor Ergashev.</b> Filologiya va boshqa yo'nalishda ta'lim olayotgan talabalarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning farqlari.....	116
<b>Umarxon Azamov.</b> Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishning zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlari.....	118
<b>Dilbarxon Muqimova.</b> Bo'lajak pedagoglarni kommunikativ yondashuv asosida mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini rivojlantirish mazmuni va ustuvor yo'nalishlari.....	120
<b>Anajon Avezova.</b> Tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan chet ellik talabalarga o'zbek tilida "kasalliklar" mavzusini o'qitishning samarali usullari.....	121
<b>Okila Turakulova.</b> Talabalarda milliy identiklikni rivojlantirishda zamonaviy o'zbek adabiyotining roli.....	123
<b>Shaxnoza Mamatqulova.</b> Talabalarining intellektual qobiliyatini rivojlantirish usullari.....	125
<b>Lazokat Ikanova.</b> Integrating Opinion Sharing and Technology-Assisted Communication in Online English Teaching (CLT Approach).....	127
<b>Ashurali Mirzayev, Muhammadiy Rahmatjonov.</b> Integrating Mobile Applications to Enhance Learners' Speaking Confidence.....	129
<b>Dostonjon Xiziraliyev, Ashurali Mirzayev.</b> Using the Eclectic Method in Efl Classes in Primary Schools.....	131
<b>Sohiba Zokirova, Xurshidaxon Obidova.</b> Lingvistik kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati.....	133
<b>Lutfiya Erkinova.</b> Loyiha ishlarini tashkil qilish jarayonida talabalarining madaniy-badiiy kompetentligini takomillashtirish metodikasi.....	134
<b>Baxit Esboganova.</b> Chizmachilik fanini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish metodikasi.....	136
<b>Mohinbonu Usmonova.</b> Ona tili darslarida komparativ tafakkurni shakllantirish jarayonining metodik yondashuvlari.....	137
<b>Shaxnoza Hakimova.</b> Xitoy tili darslarida rolli o'yinlardan foydalanishning ahamiyati.....	140
<b>Madinabonu Abdullayeva.</b> Interaction Strategies as a Tool For Developing Communicative Competence in Speaking.....	142
<b>Navruz Madalov, Sokina Mamataliyeva.</b> Evaluation of The Instruction of Reading Skills For Undergraduate Students.....	143
<b>Nilufar Yuldasheva.</b> Adabiy ta'lim mazmunidagi yangicha qarashlar.....	145
<b>Dilobod Abduraimova.</b> Formativ baholash jarayonida tinglab tushunish ko'nikmasiga oid test topshiriqlarini yaratish va qo'llash.....	147
<b>A'loxon Sadikova.</b> Ijro san'atida sahna nutqi ko'nikmalarini rivojlantirish.....	149
<b>Injigul Saburova.</b> Doston ijrochiligi ta'limotida ustoz-shogird an'analari.....	150
<b>Zafarbek Xaqiqatbekov.</b> Akademik yuklamalarning talabalar sog'lig'iga ta'siri: pedagogik yechimlar.....	152
<b>Ravshan Musaboyev.</b> Talabalarni sahna nutqiga o'rgatish.....	154
<b>Zafar Hayitov.</b> Baxshichilik va dostonchilik bo'yicha talabalarining ijro mahoratini oshirish mexanizmi.....	155

qobiliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Demak, mediatorlik kompetensiyasi pedagogning nafaqat kommunikativ, balki **psixologik, ijtimoiy, refleksiv va emotsional-intellektual** ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Kommunikativ yondashuv mediatorlik faoliyatining metodologik asosini tashkil etadi. Ushbu yondashuv:

dialogga asoslangan muloqotni tashkil etish;  
hamkorlikni kuchaytiruvchi o'zaro ta'sir mexanizmlarini ishga solish;

talabning fikr bildirishdagi faolligini rag'batlantirish;  
boshqariladigan kommunikativ vaziyatlar orqali amaliy tajriba to'plashni ta'minlaydi.

Mediator pedagogning vazifasi ziddiyatlarning ildizini tushunish, tomonlarning manfaatini tahlil qilish, emotsional zo'riqishni kamaytirish va **kelishuvga asoslangan hamkorlik muhitini shakllantirishdan** iborat. Shunday qilib, bo'lajak pedagoglarni kommunikativ yondashuv asosida mediatorlik faoliyatiga tayyorlash **ta'lim muhitidagi barqaror ijtimoiy-psixologik muvozanatni ta'minlash** hamda akademik jarayon samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Bo'lajak pedagoglarda mediatorlik kompetensiyasini shakllantirish jarayoni uzviy, ketma-ketlikka ega bo'lgan va shaxsiy-professional rivojlanishga yo'naltirilgan maxsus pedagogik texnologiya asosida tashkil etiladi. Mazkur texnologiya talabning mediatsiya haqidagi umumiy tasavvurini rivojlantirishdan boshlab, real pedagogik vaziyatlarda nizolarni bartaraf etish ko'nikmalarigacha bo'lgan kompleks tayyorgarlik jarayonini o'z ichiga qamrab oladi.

Dastlabki **motivatsion bosqichda**, talabalarda mediatsiyaning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyatiga nisbatan ichki ehtiyoj va qiziqish uyg'otiladi. Ushbu bosqichda pedagog mediatorlik faoliyatining jamiyatdagi o'rni, ta'lim muhitidagi ijtimoiy-psixologik barqarorlikni ta'minlashdagi roli haqida tushunchalar beradi. Natijada talaba mediatorlik faoliyatini kasbiy zarurat sifatida anglay boshlaydi.

**Nazariy-tahliliy bosqich** esa talabalarning ilmiy-nazariy tayyorgarligini mustahkamlashga qaratiladi. Bu jarayonda konfliktologiya, kommunikativ psixologiya, nutq madaniyati, mojarolarni bartaraf etish modellariga oid nazariy bilimlar

tizimli shaklda o'rgatiladi. Talabalar ziddiyatlarning kelib chiqish mexanizmlarini, ularni baholash va tahlil qilish tamoyillarini egallaydi.

**Amaliy-trening bosqichi** mediatorlik ko'nikmalarini bevosita faoliyat jarayonida shakllantirishga yo'naltiriladi. Rolli o'yinlar, keys-stadi, "konflikt vaziyatlarni modellashtirish", debat va muloqot simulyatsiyalari orqali talabalar tinglash, neytral pozitsiyani ushlab turish, emotsiyalarni boshqarish, konstruktiv dialogni yo'lga qo'yish kabi mediatorlik malakalarini amalda sinab ko'radilar. Ushbu bosqich amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishning eng samarali qismi hisoblanadi.

Jarayonning **refleksiya va baholash bosqichi** esa talabning o'z faoliyatini tanqidiy baholashi, kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish trayektoriyasini aniqlashi hamda mediatorlik kompetensiyasidagi o'sish dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Bu bosqich o'z navbatida talabning shaxsiy-kasbiy o'sishini boshqarish madaniyatini shakllantiradi.

Bo'lajak pedagoglarda mediatorlik faoliyatini shakllantirish jarayonini samarali tashkil etishda quyidagi ustuvor yo'nalishlar muhim hisoblanadi: mediatsiya bilan bog'liq fanlarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish, amaliy trening mashg'ulotlari sonini oshirish, hamkorlikka asoslangan o'quv muhitini yaratish, raqamli kommunikatsion platformalar asosida onlayn mediatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek talabalarning emotsional intellektini oshirish. Aynan emotsional ong, empatiya, o'zini va boshqani his qila olish mediatorlik kompetensiyasining asosiy psixologik komponenti sifatida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, mediatorlikka tayyorlash texnologiyasining kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilishi bo'lajak pedagogning shaxsiy va kasbiy kamolotini ta'minlaydi. Mediatsiya jarayonlarini ta'lim amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etish o'quv muhitida o'zaro hurmat, tushunish va hamkorlik kabi ijtimoiy-psixologik qadriyatlarining mustahkamlanishiga olib keladi. Natijada ta'lim muassasasida tinchlik, muloqot madaniyati va konstruktiv nizolarni hal qilish tamoyillari ustuvor bo'lgan ijobiy ta'lim muhiti shakllanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1977. 247 b.
2. Vygotskiy L.S. Muloqot va tafakkur. Moskva: Pedagogika, 1982.
3. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. 380 b.
4. Marzano R. Classroom Management That Works: Research-Based Strategies for Every Teacher. – New York: ASCD Publications, 2011. 320 b.
5. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy nashri, 2020. 36 b.

Anajon AVEZOVA,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son o'zbek va xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi

## TIBBIYOT YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN CHET ELLIK TALABALARGA O'ZBEK TILIDA "KASALLIKLAR" MAVZUSINI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada chet ellik talabalar uchun o'zbek tilida "Kasalliklar" mavzusini o'qitish metodikasi tahlil qilinadi. Ushbu mavzuda lug'at, dialog, matn o'qish va yozma mashqlar orqali til ko'nikmalarini rivojlantirish usullari ko'rib chiqiladi. Ta'lim jarayonida interaktiv va kontekstual yondashuvning samaradorligi ta'kidlanadi. Metodika talabalarning nafaqat lug'at boyligini oshirish, balki real hayotiy kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** chet ellik talabalar, "Kasalliklar" mavzusi, o'qitish metodikasi, lug'at, dialog, kommunikatsiya.

**Annotation.** This article analyzes the methodology of teaching the topic "Diseases" in Uzbek for foreign students. This topic examines methods of developing language skills through vocabulary, dialogue, text reading, and written exercises. The effectiveness of the interactive

and contextual approach in the educational process is emphasized. The methodology serves not only to increase students' vocabulary but also to develop real-life skills.

**Keywords:** foreign students, "Illnesses topic", teaching methodology, vocabulary, dialogue, communication.

Аннотация. В данной статье анализируется методика преподавания темы «Болезни» на узбекском языке для иностранных студентов. В этой теме рассматриваются методы развития языковых навыков посредством словарного запаса, диалога, чтения текста и письменных упражнений. Подчеркивается эффективность интерактивного и контекстуального подхода в образовательном процессе. Методика служит не только для увеличения словарного запаса студентов, но и для развития навыков реальной жизни.

**Ключевые слова:** иностранные студенты, тема «заболеваний», методика преподавания, лексика, диалог, коммуникация.

O'zbek tilini chet ellik talabalar uchun o'qitishda mavzu tanlash muhim ahamiyatga ega. "Kasalliklar" mavzusi nafaqat lug'at boyligini oshirish, balki sog'liqni saqlash madaniyatini ham shakllantirish uchun foydalidir. Til o'rganishda lug'at va grammatikani kontekstda o'rganish, real hayotiy vaziyatlarni inobatga olish muhimdir. Shu bois, kasalliklar mavzusida quyidagi metodlar qo'llaniladi:

**Leksik faollik** – talabalarga tibbiyot so'zlarini faol ravishda o'rganishga imkon beruvchi mashqlar.

**Kommunikativ yondashuv** – dialog va suhbat mashqlari orqali og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Multimodal ta'lim** – matn, lug'at, so'z topish, gap to'ldirish va tarjima mashqlari orqali ko'p qirrali o'rganish.

Endi, quyida aniq metodlar va mashqlarga namunalarni ko'rib chiqamiz:

**So'zlarni topish (Word Search).** 1-jadvalda tibbiyotga doir so'zlarni topish mashqiga misol berilgan. Bu mashq talabalar diqqatini jamlashga va yangi so'zlarni aniqlashga yo'naltirilgan. O'yin shaklidagi topshiriq lug'at faoliyatini rag'batlantiradi va til o'rganishni qiziqarli qiladi.

1-jadval. Tibbiyotga doir so'zlarni toping.

Q	S	B	Q	E	S	I	S	I	T	M	A	W	Q	A
A	H	B	I	N	T	S	H	I	S	O	G'	K	L	D
N	I	S	H	I	F	I	A	L	A	X	V	N	M	A
D	F	D	O	R	H	A	M	S	H	I	R	A	M	V
L	O	K	L	N	A	D	O	R	I	X	O	N	A	O
I	K	A	K	A	S	A	L	L	I	K	A	S	U	L
D	O	R	I	S	A	B	L	Q	L	A	V	N	E	A
I	R	D	K	T	R	O	A	O	J	O	N	E	Y	M
A	T	K	A	U	A	S	M	N	A	R	T	Y	U	O
B	I	E	S	Z	T	H	O	G'	R	I	M	O	Q	Q
E	B	M	A	A	O	G	Q	S	R	S	A	R	U	M
T	B	I	L	L	N	I	L	A	O	I	C	H	M	O
T	I	S	U	V	C	H	E	C	H	A	K	A	L	I
M	Y	U	Z	E	I	B	E	M	O	R	S	Z	I	J
A	S	H	I	F	O	X	O	N	A	Q	O'	L	O	P

So'z topish jadvallari (word search puzzles)ni dastlab ingliz tilida 1968-yili amerikalik pedagog Norman E. Gibat "Selenby Digest" jurnalida nashr ettirgan. Bu o'yinlar tez orada o'quvchilar orasida mashhurlikka erishdi va ko'plab ta'lim tizimlariga kiritila boshlandi [1]. Ammo ta'lim jarayonida, ayniqsa, til o'rgatishda undan foydalanish 1980-yillarda kengaygan. Ingliz tili, ispan tili, fransuz tili, keyinchalik esa boshqa xorijiy tillar o'rgatiladigan darslarda samarali qo'llanila boshlandi. So'z topish jadvallari – o'quvchilarning leksik bilimlarini mustahkamlovchi, diqqatini jamlovchi va

motivatsiyani oshiruvchi samarali vosita. ko'plab xorijiy va mahalliy tajribalarda uning foydasi isbotlangan. Ushbu metoddan chet ellik talabalarga o'zbek tilini o'qitishda foydalanish darsni yanada interaktiv, tushunarli va zavqli qilish imkonini beradi.

**II. Harflarni to'g'ri tartibda joylashtirish (Anagramma).** So'zlarni to'g'ri shaklda joylashtirish mashqi lug'at bilimlarini mustahkamlash, yozma nutq va so'zlarni aniqlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Harflarni to'g'ri tartibda joylashtirish mashqlari til o'rganishda juda samarali, ayniqsa, leksikani

chuqurroq o'zlashtirish, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish hamda xotirani faollashtirishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda dunyo bo'yicha va O'zbekiston tajribasida bu mashqlar natijasida so'zlarni eslab qolish va darsga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshgani kuzatilgan [2]:

Mavzu: "Using Word Unscrambling Activities to Improve Vocabulary Retention in EFL Learners"

Tajriba: ingliz tilini o'rganayotgan 30 nafar talabaga 4 hafta davomida so'z tartiblash mashqlari berildi.

Natija: lug'at eslab qolish darajasi 25–35% ga oshgan [3].

### II. Harflarni to'g'ri tartibda joylashtirib so'z hosil qiling.

1. Qaslmohalm. 2. Chtbibyqyai. 3. Mtzuaolq. 4. Tnbi 5. Vlmqdoaaq.

6. Qtsihahomqy. 7. Rokhifso.

**III. Bo'shliqlarni to'ldirish.** Ushbu mashq kontekstda so'z qo'llash orqali talabalar uchun sintaksis va semantika ko'nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, grammatik bilimlarini mustahkamlaydi.

**Mashq. Berilgan gaplardan foydalanib bo'shliqni to'ldiring.** Foydalanish uchun so'zlar: shifokor, tuzaladi, qon bosimi, hamshiralalar va jarrohlar, isitma, Toshkent tibbiyot akademiyasi, kitob, yashaydilar, uqol, dorilar.

- \_\_\_\_\_ davolaydi.
- Bemor \_\_\_\_\_.
- Bemorda \_\_\_\_\_ bor.
- Shifoxonada \_\_\_\_\_ bor.
- Do'stimda \_\_\_\_\_ yo'q. U kasal emas.
- Toshkentda \_\_\_\_\_ bor.
- Kutubxonada talabalar \_\_\_\_\_ o'qiyapti.
- Talabalar yotoqxonada \_\_\_\_\_.
- Hamshira \_\_\_\_\_ qiladi.
- Dorixonada \_\_\_\_\_ bor.

Bo'shliqni to'ldirish mashqlari – til o'rgatish jarayonida ko'p tomonlama foyda beruvchi mashq turi. Bu mashq chet

ellik talabalarning so'z boyligini mustahkamlash, fikrlash, grammatik shakllarni qo'llash va og'zaki nutqqa tayyorlash kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**IV. Dialogni o'qish va tarjima qilish.** Haftalik o'qish va tarjima mashqi orqali talabalar og'zaki nutq shakllari bilan tanishadi, shu bilan birga, tarjima qobiliyatlarini rivojlantiradi.

**Mashq. Shifokor va bemor o'rtasidagi suhbatni o'qing va tarjima qiling.**

Bemor: Assalomu alaykum.

Shifokor: Vaalaykum assalom, keling. Nima bezovta qilyapti?

Bemor: Menda bosh og'rig'i bor.

Shifokor: Isitmangiz bormi?

Bemor: Isitmam yo'q, lekin menda charchoq bor.

Shifokor: Biz qon tahlili qilamiz, keyin natijalar asosida tashxis qo'yamiz.

Bemor: Xo'p. Men roziman.

Shifokor: Men sizga tahlillar ro'yxatini yozdim. Mana, oling.

Bemor: Xo'p, katta rahmat.

Shifokor: Salomat bo'ling.

Dialogni o'qish va tarjima qilish – chet ellik talabalar uchun o'zbek tilini hayotiy holatlarda qo'llashni o'rganish va so'z boyligini faol ishlatish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali mashq. Tibbiyot sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun bu mashq kasbiy nutqqa tayyorlov vazifasini ham bajaradi.

Chet ellik talabalarni "Kasalliklar" mavzusida o'qitishda yuqoridagi mashqlar to'liq, interaktiv va o'quvchilarning barcha til ko'nikmalarini rivojlantiruvchi yondashuvni ta'minlaydi. Bu metodika talabalar uchun nafaqat lug'at boyligini oshirish, balki real hayotdagi kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirishda ham samarali. Kelgusida ushbu metodikani yanada boyitish va yangi texnologiyalar bilan integratsiya qilish tavsiya etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

- Day R.R., Bamford J. Extensive Reading in the Second Language Classroom. – Cambridge: University Press, 1998.
- Velasquez M., Martinez L. Using Word Unscrambling Activities to Improve Vocabulary Retention in EFL Learners // Colombian Applied Linguistics Journal, 2017.
- Velasquez M., Martinez L. Using Word Unscrambling Activities to Improve Vocabulary Retention in EFL Learners // Colombian Applied Linguistics Journal, 2017.

**Okila TURAKULOVA,**

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
o'zbek adabiyoti va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

## TALABALARDA MILLIY IDENTIKLIKNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTINING ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotini o'rganish jarayonida talabalarda milliy identiklikni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Zamonaviy o'zbek adabiyoti asarlari orqali yoshlarning milliy o'zligini shakllantirishda adabiyotning tarbiyaviy, ma'naviy va estetik imkoniyatlari yoritilgan. Davr ijodkorlarining asarlarida milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, mas'uliyat va insoniylik g'oyalari aks etishi izohlangan. Shuningdek, matn orqali talabalarda mustaqil fikrlash va milliy g'ururni shakllantirish yo'llari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy o'zbek adabiyoti, milliy identiklik, talaba shaxsi, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, axborot texnologiyalari, pedagogik tamoyillar.

**Annotation.** This article analyzes the theoretical and practical aspects of developing students' national identity in the process of studying modern Uzbek literature. Through works of modern Uzbek literature, the educational, spiritual, and aesthetic possibilities of literature in shaping the national consciousness of young people have been illuminated. It is explained that the works of the era's creators reflect national values, ideas of patriotism, responsibility, and humanity. Also, through the text, the ways of forming independent thinking and national pride in students were analyzed.

**Keywords:** modern uzbek literature, national identity, student personality, national values, patriotism, information technologies, pedagogical principles.